

**O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI.**

Xasanova Gulnoza Ilxom qizi

*O'zbekiston. Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Pedagogik qobiliyat masalasi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy asoslaridan biri sifatida tahlil etilganligiga qaramasdan, oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish texnologiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: pedagog kadrlar, metodik amaliyot, strategik maqsad, jamiyat taraqqiyoti, malakali mutaxassislar, kompleks rivojlantirish, integrativ yo'nalish, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyat, pedagogik bilim.

Аннотация: Несмотря на то, что вопрос педагогического мастерства анализируется как одна из важных структурных основ педагогического мастерства, актуальность приобретает технология повышения педагогического мастерства педагогов дошкольного образования высших учебных заведений на основе интегративного подхода. в данной статье говорится о теоретических основах формирования педагогической способности преподавателей высших учебных заведений.

Ключевые слова: педагогические кадры, методическая практика, стратегическая цель, развитие общества, квалифицированные специалисты, всестороннее развитие, интегративная направленность, социальная и личностная значимость, педагогические знания.

Abstract: Despite the fact that the issue of pedagogical skills is analyzed as one of the important structural bases of pedagogical skills, the technology of improving the pedagogical skills of preschool teachers of higher educational institutions based on an integrative approach is gaining urgent importance. this article talks about the theoretical foundations of the formation of the pedagogical ability of teachers of higher education institutions.

Key words: pedagogical staff, methodical practice, strategic goal, community development, qualified specialists, comprehensive

development, integrative direction, social and personal importance, pedagogical knowledge.

Uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish, oliy ta'lim tizimi doirasida barkamol shaxs va malakali mutaxasislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat taraqqiyotini taminlovchi strategik maqsad sifatida belgilangan. Shu boisdan ham oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, maktabgacha ta'lim yo'nalishi zimmasiga bir qator muhim vazifalarni ijobiy xal etish, zamon talablariga to'liq javob bera oladigan mutaxasislarni tayyorlab berish kabi ma'suliyati yuklanmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasiga doimiy ravishda jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, 2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri "pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish" ham eng muhim vazifalar sifatida e'tirof etilgan. Ushbu qarorda mazkur tizimda ta'lim sifati va samaradorligini kafolatlashga hizmat qiluvchi asosiy omillardan biri-malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, eng avvalo pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini integrativ yo'nalishda takomillashtirish masalasi o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. O'qituvchining pedagogik qobiliyati yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, shuningdek, ijtimoiy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyoti va ta'lim sifatini yuqori bosqichlarga ko'tarishga yordam beradi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik mahorati, ularning intellektual salohiyatlari, aql-u-zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishni o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. O'qituvchining pedagogik qobiliyati va bilim darajasi uning mahoratli pedagog ekanligini belgilab beradi. Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatining yuqori umumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi.

Kasbiy bilimlar-o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. O'qituvchining bilimi bir tomondan mutaxassisligi doirasida o'tadigan fanga, ikkinchi tomondan esa talabalarga qaratiladi. Kasbiy pedagogik bilimlarning o'ziga xos jihati shundaki, u majmuaviy hamda integratsiyadan iboratdir. Olimlarning ilmiy tadqiqotlari

natijasiga ko'ra inson qobiliyatlari xayot tajribasi mahsuli bo'lib, ular inson hayoti faoliyati natijasida muayyan ta'lim-tarbiyaviy muhit sharoitida shakllanib boradi, rivojlanadi va takomillashadi. Inson qobiliyati o'zgaruvchanlik hususiyatiga ega bo'lib, uyushgan faoliyat jarayonini taqozo etadi. Bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida rivojlanishni ta'minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o'rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida hal qiladi. Bu faoliyat o'qituvchining individual uslubini belgilab beradi va o'z kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi kerakligini tavsiflaydi.

D. Abdurahimova va R. Mavlonovning bergan pedagogik qobiliyatlarga bergan ta'riflarida qo'pol so'zlar keltirilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, "Kelajakni oldindan ko'ra bilish qobiliyati" ta'rifida " o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishda, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.

O'qituvchi –pedagoglarimiz oliy ta'lim muassasasidagi faoliyati jarayonida pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Oliy ta'lim muassasalarida pedagog xodimlarning qobiliyati ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida ro'yobga chiqa boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qobiliyat masalasi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy asoslaridan biri sifatida tahlil etilganligiga qaramasdan, oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish texnologiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ush bu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan xislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilari yordamchi rol o'ynaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3765586>

3. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim tarbiyachisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007. - 349 b.

4. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy –madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped.fan.nomz.diss.avtoref. T.2002-22 bet.

5. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak tarbiyachining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014, -146 b